



BASHORAT OTAJONOVA SHE'RLARIDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Sirojiddinova O'g'iloy

ShDPI Tillar fakulteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 6-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 10-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 15-fevral 2023 yil

KEY WORDS

*shakl, mazmun, tasviriy vositalar,
shaklsiz she'r, yozuvchilar
uyushmasi.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada shoira Bashorat Otajonova ijodiga mansub she'rlar tahlil qilingan bo'lib, uning mazmun va shakl jihatdan o'ziga xos tomonlari ochib berishga harakat qilingan.

Shoir ijod qilar ekan, o'z ijod mahsuliga qalbining bir parchasini singdiradi. Ya'ni shoirning yaratgan asarida his-tuyg'ulari, orzu-armonlari, o'y-hayollari qisman bo'lsa-da namoyon bo'ladi. Ayniqsa, shoirlarimiz ijodida bu holat yaqqol seziladi. Ular ichki kechinmalarini ayollarga xos nazokat, sharqona hayo bilan o'z asarlariga baxsh etishadi. Ko'ngildan taralgan go'zal ohanglar esa ko'ngillarga yetib borib, bir umrga u yerdan joy oladi. Dilga yaqin she'rlari bilan xalqimiz mehrini qozongan shunday shoirlarimizdan biri – Bashorat Otajonovadir. Shoira ijodi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning ijod dengiziga u bilan birga g'arq bo'lamiz. Uning o'zgacha uslubi e'tiborimizni tortadi. Shoiraning "Senli havolarda" deb nomlangan she'riga e'tibor beraylik.

Senli havolarda to'zg'iydi mezon,
O'zgarar kunlarning yam-yashil rangi.

Derazang ortida bahaybat osmon

Kaftimday oynaga boqadi g'amgin.

(Ko'zimga ko'zgu tut, men nur istaram!)

Bu she'rning har bandi oxirida shunday qo'shimcha misralar mavjud bo'lib, bu she'r mazmunining yanada go'zallashuviga sabab bo'ladi. Qo'llanilgan badiiy tasvirlar esa shoira uslubining naqadar teran, samimiy ekanligini ko'rsatadi. She'rning birinchi bandida bizga tushunarsiz bo'lgan holat she'rni o'qish davomida birma-bir ayon bo'ladi. Muhabbat atalmish sof tuyg'uning gunohga aralashuvi bu she'r mazmunining asosini tashkil etadi.

Shoiraning "Tugallangan she'rlar" turkumidan o'rin oluvchi she'rlari ham uning ijodida muhim o'rin egallaydi. Uning "Kuz" nomli she'riga diqqat qilaylik: "Qarg'alar quyundek to'zg'itdi ko'kni".

Qarg'alar, asosan, kuz mavsumida uchib kelishini hammamiz bilamiz. Bu kuz kelishining o'zgacha darakchisi hisoblanadi. Shoira bu hodisadan ustalik bilan foydalanib ajoyib tasvir yaratgan.

Bulutlar birlashib bir fitna tuzgach

Kunga boqmay qo'ydi kungaboqarlar.

Bu she'rda ham shoira tabiat hodisalaridan biri, ya'ni yomg'irga ishora qilgan. Bulutlarning osmonda to'p-to'p bo'ib birlashishi, kungaboqarlarning yerga egilishi yomg'ir haqidagi go'zal she'rga asos bo'lgan.

Shoira ijodida "Men" va "Sen" obrazlarining ham o'zgacha o'rni bor. Uning ko'p she'rlarida bu yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin ularning barchasida "Sen" uzoqlarda. "Men" dan ayro. Ayriliq bu she'rlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ajablanarlisi, "Sen" va "Men" obrazlarining ikkisi ham bu ayriliqqa ko'nikishgan. Bu ayriliq sabablari esa pinhon. Lekin ikki obrazning bir-biriga bo'lgan muhabbati har bir kitobxon qalbiga o'zgacha iliqlik uyg'otadi.

Sen - qafas, ichingga qamalgan dunyo,

Men - qushman ichingda senga ichikkan.

Qanotim ostida kalit bor, ammo

Chiqib ketolmayman eshikdan

Men - bandi.

Ko'ngil ichida bir gul,

Gulning ichida ko'ngil...

(Na sen borsan, na men yo'q)

Ko'zgu ichida osmon,

Osmon ichida ko'zgu...

(Na sen borsan, na men yo'q)

Sendan olislarda

Sendan bexabar

Ko'zlaringdek tiniq mezon suvida

Qirmizi baliqlar suzadi horg'in.

Mendan olislarda

Mendan bexabar

Menga deb o'stirgan

Masih gullaring

Jon berar birma-bir

Ko'zing o'ngida

Bashorat Otajonova 2003-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Zominda o'tkazilgan iste'dodli yosh ijodkorlarning 7-an'anaviy anjumanida "Yuksak badiiy tasvir vositalari uchun "nominatsiyasi bo'yicha sovrindor bo'lgan. Shoira ijodida chindan ham badiiy tasvir vositalarining go'zal namunalari uchraydi. Shoira she'rlarida fasllar, tabiat hodisalari, turli xil narsalar jonlanadi. Hech qaysi shoir ijodida uchramagan badiiy tasvirlar shoira ijodining salmog'ini oshiradi. "Aprel hayratlari" turkumidan o'rin oluvchi she'rlari buning yaqqol namunasidir.

Ko'chalarda ko'hna sehrigar kabi

Aprel sayr boshlar qo'lida savat.

Rang sochar,

Ranglarni ariqlar labi

Kiyib boraverar qavatma-qavat.

Bahor har bir ijodkor qalbida yangi chechaklar undiradi. Ushbu chechaklar oq qog'ozga to'kilgach esa, shoirning farzandidek aziz bo'lgan she'ri dunyoga keladi. Balki, shuning uchun ham ijod ahli bahor faslini o'zgacha intiqlik bilan kutishar. Ushbu she'rda ham shoira bahorning intiq kutilgan oylaridan biri ya'ni aprelni tasvirlaydi. U aprelni "ko'hna sehrar" ga o'xshatadi. Bu she'r davomida shoira dalalarga nisbatan "oqko'ngil", bulbulga "mittigina", shabadaga "qitmir boladay" sifatlashini qo'llaydi.

Bashorat Otajonova ba'zi she'rlarida shakldan mazmunni ustun ko'radi. Bir qaraganda, noodatiy, shaklsiz ko'ringan she'rlar zamirida yashiringan ma'no esa kitobxonni o'ygatoldiradi. Jumladan,

Ko'nglimizni ochardik avval:

Men buvimga,

Buvim qushlarga.

Bugun men ham qushlarga sepdim,

Non kabi ushatib ko'nglimni.

Inson eng yaqin darddoshidan ayrilsa qay ahvolga tushadi? Eng qiyin damlarda dardimizga darmon bo'luvchi, hech bo'lmasa, so'zlarimizni chin dildan tinglab, yupatguvchi insonning hayotimizda bo'lishi ham bir baxt-ku. Shoiraning ushbu she'rida xuddi shunday yaqin insonidan ayrilish holati tasvirlangan. Shoira ayriliq tasvirini "Bugun men ham qushlarga sepdim, Non kabi ushatib ko'nglimni" misralari orqali go'zal tarzda ifodalagan. Bu ifodaning o'zi she'rga jo bo'lgan qayg'uning og'irligini ko'rsatib bergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, taniqli shoiramiz Bashorat Otajonova o'z she'rlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. Bunga sabab shoira she'rlarining inson ko'ngliga yaqinligi, dard-u tashvishlariga yupanch bo'la olishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.kh-davron.uz.

2.saviya.uz.

3.ziyouz.uz.

INNOVATIVE
ACADEMY